Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	618
<i>Soatov E. M.</i>	
Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati .....	623
<i>Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna</i>	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....	626
<i>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</i>	
O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	631
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati .....	636
<i>Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari .....	641
<i>Narzikulov Javohir Ikromovich</i>	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
<i>Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</i>	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi .....	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления .....	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar .....	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
<a href="#">Д. Б. Бабаева</a>	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....	750
<a href="#">Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</a>	

# ODAM MARKAZIY ASAB TIZIMI TARAQQIYOTI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY YECHIMLARI

Mirzayeva Nodira Abduxamidovna

Alfraganus universiteti tibbiyot kafedrasida dosenti.v.b.  
pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson markaziy asab tizimining funksional taraqqiyoti, uning tarkibiy bo'limlari va ularning amaliy vazifalari keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida amaliy tajribalar hamda refleksiv texnologiyalar asosida miya yarim sharlarining, xususan, o'ng va chap yarim sharlarning funksional faolligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, inson tafakkuri va kognitiv jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** inson miyasi, markaziy asab tizimi, miya yarim sharlari, kognitiv rivojlanish, neyropsixologiya, refleksiv texnologiyalar, tafakkur jarayonlari, aqliy mashqlar, miya faoliyati rivoji.

**Abstract:** This article comprehensively examines the functional development of the human central nervous system and analyzes the practical roles of its structural components. The study highlights methods for enhancing the functional activity of the right and left hemispheres of the brain through practical experiments and reflective technologies. Additionally, scientifically grounded recommendations are proposed to improve cognitive processes and human thinking.

**Key words:** human brain, central nervous system, brain hemispheres, cognitive development, neuropsychology, reflective technologies, thinking processes, mental exercises, brain activity development.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне рассмотрены вопросы функционального развития центральной нервной системы человека, а также проанализированы практические функции её отдельных структурных подразделений. В рамках исследования освещены методы развития функциональной активности правого и левого полушарий головного мозга на основе практических экспериментов и рефлексивных технологий. Кроме того, предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию когнитивных процессов и мышления человека.

**Ключевые слова:** головной мозг человека, центральная нервная система, полушария мозга, когнитивное развитие, нейropsихология, рефлексивные технологии, мыслительные процессы, умственные упражнения, развитие мозговой деятельности.

## KIRISH

Miya va tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlar va mashqlar. O'ng va chap miyani qanday rivojlantirish kerak? Inson hayvonot dunyosidan ajralib chiqib, ongli fikr yuritadigan mavjudotga aylandi. U o'z atrofidagi borliqni yangicha idrok eta boshladi. Odamlar o'zaro muloqot qilishni yo'lga qo'ydilar, yozishni o'rgandilar hamda muhandislik asoslarini o'zlashtirdilar. Bularning barchasi inson miyasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Natijada fikrlash, mantiq va tasavvur jarayonlari yangi bosqichga ko'tarildi. Miyani to'liq rivojlantirish masalasini anglash uchun, avvalo, uning qanday funksiyalarni bajarishini aniqlab olish zarur.

Inson miyasi haqida qisqacha ma'lumot. Miya inson organizmining eng murakkab va sirli organlaridan biri hisoblanadi. Ba'zan u shartli ravishda kompyuterga qiyoslanadi. Inson hayoti davomida doimiy ravishda yangi bilimlarni egallaydi, zarur ma'lumotlarni eslab qoladi va ularni kerakli vaqtda qayta tiklay oladi. Inson ongi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash xususiyatiga ega. Miya quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: fikrlash, nutq, ong, hissiyotlar, harakatlarni muvofiqlashtirish, kutishni boshqarish hamda rejalashtirish.

Mazkur funksiyalar ro'yxati ancha keng bo'lib, bu borada ko'plab psixologlar va olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Inson miyasi ikkita yarim shardan iborat bo'lib, ular o'ng va chap yarim sharlar deb ataladi. Ushbu yarim sharlar o'zaro korpus kallosum orqali bog'langan bo'lib, aynan shu tuzilma orqali ular o'rtasida axborot almashinuvi amalga oshiriladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson markaziy asab tizimi va uning rivojlanish qonuniyatlari zamonaviy ilm-fanda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar, ayniqsa, kognitiv biologiya va neyropsixologiya doirasida chuqur o'rganilgan. Xususan, Gennaro Auletta tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tirik organizmlarda axborotni qayta ishlash jarayonlari va ularning miya faoliyati bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Muallifning fikriga ko'ra, inson miyasi nafaqat biologik tizim, balki murakkab axborot tizimi sifatida ham namoyon bo'ladi va u tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir orqali rivojlanadi.

Shuningdek, neyrobiologiya sohasidagi muhim ilmiy qarashlar František Baluška va Stefano Mancuso tadqiqotlarida aks etgan bo'lib, ular nerv tizimining evolyutsion ildizlarini va uning moslashuvchanlik xususiyatlarini keng yoritib berganlar. Ularning ilmiy ishlari markaziy asab tizimining rivojlanishi faqat genetik omillar bilan emas, balki tashqi muhit, tajriba va faoliyat bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur ilmiy qarashlar inson miyasining plastiklik xususiyatini, ya'ni yangi bilim va ko'nikmalar asosida o'zgarish va rivojlanish qobiliyatini tasdiqlaydi. Bu esa maqolada keltirilgan amaliy mashqlar va refleksiv texnologiyalar orqali miya faoliyatini rivojlantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda inson markaziy asab tizimi rivojlanishini o'rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, kuzatuv va amaliy mashqlarni sinovdan o'tkazish usullari qo'llanildi. Xususan, miya yarim sharlari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan refleksiv va neyropsixologik mashqlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, turli yoshdagi ishtirokchilarda aqliy faollik darajasi va diqqatni jamlash ko'rsatkichlari kuzatildi. Olingan natijalar asosida miyaning funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar baholandi hamda samarali amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agar miyaning chap yarim shariga zarar yetkazilsa, bu holat muayyan darajada o'ng yarim shar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, ilmiy kuzatuvlarda ayrim holatlarda miyaning bir qismi shikastlanganda boshqa yarim shar uning ayrim funksiyalarini qisman o'z zimmasiga olishi va insonning moslashuv imkoniyatlari saqlanib qolishi aniqlangan. Inson miyasi ikki yarim shardan iborat bo'lib, har bir yarim shar o'ziga xos funksiyalarni bajaradi va ular o'zaro uyg'unlikda ishlaydi. Chap yarim shar ma'lumotlarni ketma-ket va bosqichma-bosqich tahlil qilishga ixtisoslashgan bo'lib, unda mantiqiy fikrlash, hisob-kitob va tizimlashtirish jarayonlari ustunlik qiladi. O'ng yarim shar esa sezgi, tasavvur va ijodiy idrok bilan bog'liq ma'lumotlarni qayta ishlaydi, musiqa va ranglarni idrok etadi hamda fazoviy yo'nalishni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, u mavjud ma'lumotlarni sintez qilish orqali muammolarga noodatiy yechim topishga yordam beradi. Mazkur jihatlar inson miyasining murakkab va ko'p qirrali tizim ekanligini ko'rsatadi.

Miya qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi psixologiyada muhim o'rin tutadi. Psixolog Jung ongli va ongsiz jarayonlarni Aysberg modeli bilan izohlab, ongni uning yuqori qismi, ongsizlikni esa chuqur qatlam sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuv asosida inson miyasi katta salohiyatga ega bo'lib, uni muntazam rivojlantirish orqali yanada samarali faoliyat yuritish mumkinligi ta'kidlanadi. Shu sababli inson o'z aqliy imkoniyatlarini rivojlantirishga intilishi zarur. Miya faoliyatini rivojlantirish uchun jismoniy faollik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki harakatsizlik qon aylanishining sustlashishiga olib kelib, miyaning kislorod bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. To'g'ri va muvozanatli ovqatlanish, foydali oziq moddalarga boy ratsion hamda zararli odatlardan voz kechish miya faoliyatining samaradorligini oshiradi. Yetarli miqdorda suv iste'mol qilish organizmda modda almashinuvini yaxshilaydi va miya faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, muntazam uyqu, stressni boshqarish va ijtimoiy faollikni saqlash ham muhim omillar hisoblanadi.

Miyaning samarali ishlashi uchun faqat bitta yarim sharni rivojlantirish yetarli emas, balki ularning uyg'un va muvozanatli faoliyatini ta'minlash zarur. Masalan, inson mantiqiy masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishi bilan birga estetik va ijodiy jihatlarni ham anglay olishi lozim. Ta'lim tizimida ham bu yondashuv aks etadi, ya'ni texnik va gumanitar fanlarning uyg'unligi shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, texnik yo'nalishdagi mutaxassislar gumanitar fanlarni ham o'rganadi, gumanitar yo'nalish vakillari esa matematik va mantiqiy bilimlarni egallaydi. Bu esa inson tafakkurining muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, inson miyasining ikkala yarim sharini ham parallel ravishda rivojlantirish zarur. Buning uchun maxsus aqliy va psixomotor mashqlar tizimidan foydalanish mumkin. Masalan, dastlab o'ng qo'l bilan soat yo'nalishi bo'yicha qorin sohasiga aylana harakatlar bajarish, chap qo'l bilan esa bosh sohasiga yuqoridan pastga vertikal harakatlar qilish tavsiya etiladi. Ushbu harakatlar mukammal o'zlashtirilgach, ularni bir vaqtning o'zida bajarish orqali yarim sharlar o'rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirish

mumkin. Dastlab bu mashqlar oddiy ko'rinib-da, ularni birlashtirish jarayonida koordinatsiya murakkablashadi, biroq muntazam mashq qilish orqali bu qiyinchiliklar bartaraf etiladi. Shundan so'ng qo'llarning funksional rol-larini almashtirish orqali mashq samaradorligini oshirish mumkin.

Shuningdek, nafas olish mashqlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda ikki qo'lni qorin sohasiga qo'ygan holda chuqur va ritmik nafas olish tavsiya etiladi, bu esa nerv tizimining muvozanatlashuviga xizmat qiladi. Yana bir samarali mashq sifatida ikkala qo'l yordamida bir vaqtning o'zida turli geometrik shakllarni, masalan, chap qo'l bilan kvadrat, o'ng qo'l bilan esa yulduz chizish orqali miya yarim sharlarining sinxron faoli-yati ta'minlanadi. Ushbu mashqlarni murakkablashtirish orqali insonning ijodiy va analitik qobiliyatlari yanada rivojlanadi. Bundan tashqari, kundalik faoliyatni odatiy bo'lmagan usullarda bajarish, masalan, boshqa qo'l bilan yozish, boshqa oyoq bilan harakatni boshlash yoki oddiy amallarni yangi uslubda bajarish miyada yangi neyron aloqalar shakllanishiga yordam beradi.

Ko'zlarni bog'lagan holda fazoviy harakatlarni bajarish va sezgi organlari faoliyatini tahlil qilish ham miya faoliyatini rivojlantiruvchi muhim usullardan biri hisoblanadi. Bunday mashqlar insonda eshitish, sezish va fazoviy idrokni kuchaytiradi hamda noaniq vaziyatlarda moslashuvchanlikni oshiradi. Umuman olganda, mazkur mashqlar insonni kundalik faoliyatga yangicha yondashishga undaydi va tafakkurning moslashuvchan-ligini oshiradi.

O'ng yarim sharni rivojlantirish uchun ijodiy faoliyat, xususan, chizmachilik, musiqa tinglash va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar samarali hisoblanadi. Inson atrof-muhitni mavhum tarzda idrok etishga, ranglar va shakllarni sezgi orqali tanlashga o'rganishi lozim. Shuningdek, boshqa insonlarning holatini his etish va voqelikka ularning nuqtai nazaridan qarash qobiliyatini rivojlantirish ham o'ng yarim shar faoliyatini kuchay-tiradi. Bundan tashqari, ayrim harakatlarni chap qo'l bilan bajarish orqali ham o'ng yarim shar faollashtiriladi.

Chap yarim sharni rivojlantirish esa mantiqiy va analitik faoliyat orqali amalga oshiriladi. Jumladan, mate-matik masalalarni yechish, mantiqiy topshiriqlarni bajarish va krossvordlar yechish orqali tahliliy fikrlash qobili-yati rivojlanadi. Shuningdek, kundalik faoliyatda tananing o'ng qismini faolroq ishlatish ham chap yarim sharni faollashtiradi. Ushbu mashqlarning barchasi inson miyasining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijada, barkamol rivojlangan shaxsda miyaning ikkala yarim shari uyg'un faoliyat yuritadi va bir-birini muvozanatlashtiradi. Bu esa insonning mantiqiy, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yanada takomillash-tirishga xizmat qiladi. Shu bois muntazam mashq qilish orqali inson o'z intellektual salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishi mumkin.

Miyaning asosiy prinsiplari. Inson miyasi tabiat tomonidan yaratilgan eng murakkab va sirli tizimlardan biri hisoblanadi. Uni shartli ravishda elektron kompyuter bilan taqqoslash mumkin. Inson hayoti davomida doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtiradi, foydali ma'lumotlarni to'playdi va zarur paytda ularni qayta tiklay oladi. Ahamiyatini yo'qotgan ma'lumotlar esa tabiiy ravishda xotiradan siqib chiqariladi. Miyaning barcha funksiyala-rini to'liq yoritish murakkab bo'lsa-da, uning asosiy vazifalariga xotira, nutq, fikrlash, o'zini anglash, ong, borliqni umumiy idrok etish va xayol kiradi.

Inson miyasi ikki yarim shardan iborat bo'lib, ular korpus kallosum orqali o'zaro bog'langan va shu tuzilma orqali axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Har bir yarim shar muayyan funksiyalarni bajaradi. Ilmiy kuzatuv-larda ayrim hollarda jarohatlar tufayli bir yarim shar boshqa yarim sharning funksiyalarini qisman o'z zimma-siga olishi mumkinligi aniqlangan, bu esa miyaning moslashuvchanlik xususiyatini ko'rsatadi. Chap yarim shar asosan mantiqiy fikrlash, hisob-kitoblar va ketma-ket tahlil jarayonlari uchun mas'ul bo'lib, tashqi ma'lumotlarni tizimli ravishda qayta ishlaydi. O'ng yarim shar esa ijodkorlik, hissiy idrok va sezgi bilan bog'liq bo'lib, musiqa, ranglar va fazoviy muhitni anglashda muhim rol o'ynaydi hamda ijodiy fikrlash va noodatiy yechimlar topishga yordam beradi. Shu jihatlari inson miyasining murakkab va ko'p funksiyali tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Miya faoliyatini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy vazifa ikkala yarim sharning uyg'un va sinxron ishlashini ta'minlashdan iborat. Fokusli mashg'ulotlar orqali diqqatni jamlash, katta hajmdagi axborotni qayta ishlash, tez va to'g'ri qaror qabul qilish, qisqa muddatli faoliyatni samarali tashkil etish hamda muhim jihatlarni tezda anglash kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Ushbu qobiliyatlar yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Miyaning ishlashini sport zalidagi mashqlar bilan qiyoslash mumkin: muntazam mashg'ulot bo'lmasa, mushaklar zaiflashgani kabi, aqliy faoliyat yetarli bo'lmaganda miya faoliyati ham sustlashadi. Aksincha, doimiy intellektual faoliyat natijasida yangi neyron aloqalar shakllanadi va miyaning qon bilan ta'minlanishi yaxshilanadi.

Miyaning samarali faoliyati uchun yangi bilimlar va taassurotlar orqali yangi neyron bog'lanishlar shaklla-nishi zarur. Bu jarayon ta'limning dastlabki bosqichlarida tabiiy ravishda yuz beradi. Bolalar bog'chasi, maktab va oliy ta'lim muassasalarida olingan bilimlar miyaning faol holatda bo'lishiga xizmat qiladi. Biroq ko'pchilik insonlar rasmiy ta'limni tugatgach, o'rganishni kamaytiradi va kundalik hayotda bir xil faoliyat bilan cheklanib qoladi. Bu esa aqliy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, miyani doimiy ravishda rivojlantirib borish muhim ahamiyatga ega.



Miyaning ikkala yarim sharini rivojlantirish uchun turli mashqlar samarali hisoblanadi. Masalan, ikkala qo'l bilan bir vaqtning o'zida chizish mashqi yarim sharlar faoliyatini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Bunda oddiy shakllardan boshlab, asta-sekin murakkab tasvirlarga o'tiladi. Tasodifiy so'zlarni bog'lab hikoya tuzish mashqi esa ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Rang va so'zlarni ajratib idrok etishga qaratilgan mashqlar diqqatni jamlash va konsentratsiyani oshiradi, chunki bunda har ikki yarim shar bir vaqtning o'zida faol ishlaydi. Ushbu mashqlar muntazam bajarilganda insonning idrok etish qobiliyati, tafakkuri va umumiy aqliy salohiyati sezilarli darajada rivojlanadi (1-rasm).



1-rasm: So'zlar mashqi

Qayta tiklanadigan haqiqat. Ushbu mashq samarali vizual va kognitiv mashqlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi vizual, eshitish va hid bilish xotirasini o'z ichiga olgan tasavvurni maksimal darajada rivojlantirishdan iborat. Mashqni bajarish jarayonida barcha tashqi chalg'ituvchi omillarni bartaraf etish, xususan, televizorni o'chirish va mobil qurilmalar ovozi o'chirib qo'yish tavsiya etiladi. So'ngra ko'zlarni yumgan holda tanish bo'lgan insonni xotirada tiklashga harakat qilinadi, ya'ni uning yuz tuzilishi, ko'zlari va soch rangini aniq tasavvur qilish zarur. Keyingi bosqichda ushbu insonning ovozi va hid bilan bog'liq xotira elementlarini tiklashga e'tibor qaratiladi. Tasavvur bosqichma-bosqich boyitilib, yangi detallar bilan to'ldiriladi. Ushbu jarayon orqali inson o'z tasavvurini kengaytiradi va keyinchalik xayoliy obrazlar hamda yangi voqealarni ongida yaratish qobiliyatiga ega bo'ladi. Mazkur mashq ijodkorlik, tasavvur va kreativ fikrlashni sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Neyrobika. Ushbu mashq miya faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo'lib, barcha sezgi tizimlarining uyg'un ishlashini ta'minlaydi. Mazkur usul amerikalik neyrosunus Lawrence Katz tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy mohiyati kundalik faoliyatni odatiy bo'lmagan usullar orqali bajarishga asoslanadi. Masalan, inson o'z yashash muhitida ko'zi yumuq holda harakatlanishi, odatda ishlatiladigan qo'ldan farqli ravishda boshqa qo'l bilan yozishi yoki kundalik marshrutlarini o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, atrof-muhitni chuqurroq idrok etish maqsadida ta'm, hid va sezgi orqali predmetlarni aniqlashga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, yangi faoliyat turlarini sinab ko'rish va oddiy savollarga noodatiy yondashuv asosida javob topish ham neyrobika mashqlarining muhim jihatlardan biridir. Ushbu yondashuv miya faoliyatini faollashtirib, yangi neyron aloqalar shakllanishiga yordam beradi va insonning kognitiv moslashuvchanligini oshiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, inson markaziy asab tizimi, xususan, miya faoliyati va uning yarim sharlarining uyg'un rivojlanishi shaxsning intellektual salohiyati va tafakkur darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, miyaning plastiklik xususiyati orqali uni maxsus mashqlar, refleksiv texnologiyalar va muntazam aqliy faoliyat yordamida samarali rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, o'ng va chap yarim sharlarning parallel faoliyati insonning mantiqiy, ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini kompleks ravishda shakllantiradi.

Shu asosda, miyaning funksional rivojlanishini ta'minlash uchun muntazam ravishda neyropsixologik mashqlarni bajarish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, jumladan, jismoniy faollikni oshirish va to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida refleksiv va innovatsion metodlardan foydalanish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar orqali insonning aqliy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish va uning samaradorligini oshirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аулетта, Дж. (2011). Когнитивная биология: работа с информацией, передаваемой бактериями и умами. Оксфорд: Oxford University Press.
2. Балушка, Ф., Манкузо, С. (2009). Глубокие эволюционные истоки нейробиологии: пересмотр основ нейронауки. *Communicative & Integrative Biology*, 2(1), 60–65.
3. Бехтель, У. (2013). Описание семинара “Когнитивная биология” из серии “Когнитивная наука 200”.
4. Бен Джейкоб, Э., Шапира, Й., Таубер, А. И. (2006). Поиск основ познания у бактерий: от отрицательной энтропии Шрёдингера к скрытой информации. *Physica A: Statistical Mechanics and its Applications*, 359, 495–524.
5. Бёрд, А. (2010). Обзор: когнитивная биология – эволюционные и развивающиеся перспективы разума, мозга и поведения.
6. G'ofurov, A. T., Fayzullaev, S. S., Raximov, A. K., Zoxidova, B., Matkarimov, F. I. (2020). *Antropologiya*. Chirchiq.
7. Raximov, A. K. (2011). *Evolutsion ta'limot fanidan amaliy va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi*. Toshkent: O'zMU, 111 b.
8. Raximov, A. K. (2019). *Evolutsion ta'limot fanidan pedagogik tajriba-sinov o'tkazish materiallari*. Toshkent, 170 b.
9. Prigojin, I. (1980). *Ot bytiya k stanovleniyu*. San-Fransisko: Freeman.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.